



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI DANG'ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 25 - aprel

VI-76-42-11-155-K/23

Dang'ara tuman hokimligi

2023-yil 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 6-oktyabrdagi "Tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi VI-62-150-11-155-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 32.47-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 6-oktabrdagi "Tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi VI-62-150-11-155-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 32.47-bandiga asosan 2023-yil 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i K. Latipovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

-2023-yil 1-choragida "Tashabbusli budgetlashtirish" jarayoni natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1 va 2-ilovaga muvofiq;

-2023-yil 1-choragida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi mablag'larining shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

-2023-yil 1-choragida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun

yoʻnaltirilgan mablagʻlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (K.Latipov), Mahalla va nuroniylarni qoʻllab-quvvatlash boʻlimi (J.Jahonboev), Yoshlar ishlari agentligi tuman boʻlimi (L.Xidirov) hamda mahalla fuqarolari yigʻinlari bilan birgalikda 2023-yilda oʻtkaziladigan “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish boʻyicha targʻibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman iqtisodiyot moliya boʻlimi (K.Latipov), tuman hokimligi axborot xizmati (U.Usmonov) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari boʻyicha maʼlumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga koʻra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (U.Turdiqulov), ijrosini taʼminlash moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha tuman hokimining birinchi oʻrinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Tojixakimov

Xalq deputatlari Dangʻara
tuman Kengashining
2023 yil 25 apreldagi
VI-76-42-11-155-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa
		(ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	1 760 829,9
2	<u>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*</u>	5 353 505,0
3	<u>Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**</u>	0,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	0,0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	0,0
3.3.	Iqtisod qilingan mablag'lar	0,0
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	7 114 334,9

Xalq deputatlari Dangʻara
tuman Kengashining
2023 yil 25 apreldagi
VI-76-42-11-155-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar		umumiy uzunligi		
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi va oqava ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7	Elektr tizimi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar		soni		
jami		0	X	X	0

Xalq deputatlari Dang'ara
tuman Kengashining
2023 yil 25 apreldagi
VI-76-42-11-155-K/23-son
qaroriga
3-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan

MA'LUMOT

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
			1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		5159505				5159505	0,0	
2	Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		194 000,0	0,0	0,0	0,0	194 000,0	0,0	
2.1.	Shu jumladan	erkin qoldiq mablag'lari	194 000,0				194 000,0	0,0	
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi					0,0	0,0	
2.3.		davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar					0,0	0,0	
2.4.		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar					0,0	0,0	
2.5.		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-197 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar					0,0	0,0	
2.6.		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-409 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar					0,0	0,0	
3	Jami ajratiladigan mablag'lar		5353505	0,0	0,0	0,0	5353505	0,0	

Xalq deputatlari Dangʻara tuman Kengashining
2023 yil 25 apreldagi
VI-76-42-11-155-K/23-son qaroriga
4-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (gʻolib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilgan mablagʻlar yuzasidan

MA'LUMOT

ming.soʻm

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami toʻplangan ovozlari soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming soʻm)						
			onlayn ovozlari	oflayn ovozlari	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablagʻlar	Bajarilgan ishlar uchun toʻlab berilgan mablagʻlar	Iqtisod qilinib, jamgʻarmaga qaytarilgan mablagʻ	Qoldiq mablagʻlar
1													
2													
3													
4													
5													
.....													
Jami:								-	-	-	-	-	-